

HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA RADIFNING QO'LLANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6568297>

Davronbekova Shahlo

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

O'zbekiston xalq shoirasi, Halima Xudoyberdiyevani, o'zining sehrli so'zlari-yu, abadiy she'rlari bilan xalqimiz mehrini qozongan ijodkor sifatida bilamiz. Shoiraning ijodidagi o'zgacha yondashuv insonni o'ziga tortadi. Asarlaridagi da'vat ko'nglingizni sa'mimiyat, ezgulik, qadr, muhabbat kabi tuyg'ularning nurlari bilan ravshanlantirib turadi. Ijodkor asarlarida go'zal she'riy san'atlardan foydalangan. She'rlaridagi radifning o'rnini ko'rib chiqaylik.

Radif (arabchadan olingan bo'lib "ketma-ket keluvchi")—Sharq xalqlari—o'zbek she'riyatida misra yoki baytning oxirida qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi so'zdan iborat bo'ladi. Radif qofiya bilan boshqariladigan ohangdoshlikni, tovush uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi, she'rga musiqiylik va ohang baxsh etadi.

Bunday ohangdoshlik va musiqiylikni shoiraning Halima Xudoyberdiyeva ijodida kuzatadigan bo'lsak, uning "Oppoqqina chaqaloq" she'ridagi:

"Oppoqqina chaqaloq, hey, suymoq istayman,

Seni qiynab, otib-otib osmonlarga.

Yashash ishqin yuragingga quymoq istayman,

O'rgangin sen biz yashagan bo'stonlarga.

Sahrolarning quyunidani cho'chib yurmagin,

Quyunlarga quyun bo'lib keltirolgin shak.

Ko'chmanchiday qo'nim bilmay ko'chib yurmagin

Bir dalada ko'kargin sen bizlarga o'xshab"[1,13]

bandlaridagi suymoq-quymoq, osmonlarga-bo'stonlarga, cho'chib-ko'chib so'zlari-qofiya, istayman, yurmagin so'zlari esa radif bo'lib kelyapti. She'r 1972-yil 14-yanvarda yozilgan bo'lib, undagi oddiylik va sa'mimiylik qalbga tashlanadi.

"Olqishlashing kerak" she'ridagi:

"Do'stim, sen meni olqishlashing kerak...

Har mushkul, tashvishingga hamkorligim uchun.

Sho'xligim, qo'shig'ingda jo'rligim,

Zaifligim, goho g'o'rligim...

Xullas, bu dunyoda borligim uchun

Olqishlashing kerak!"[1,13]

satrdagi hamkorligim, jo'rligim, g'o'rligim, borligim so'zlari qofiya, olqishlashing kerak jummalari radif vazifasini bajarib kelyapti. She'r 1970-yil 6-mayda yozilgan bo'lib, bu yerda do'stga bo'lgan dil izhori yorqin tasvirlangan. Ayniqsa, na g'alabam, na bir

shunqorligim, hech biri uchunmas–shunchaki sening yoningdaligim va yer yuzida borligim uchun olqishlashing kerak degan misralarida bevosita yaqin do'stingiz hayolingizda mehmon bo'ladi.

*" Ko'p narsalar kelar esga qor uchqunlab turganda,
Ko'hna dunyo yoshdir ko'zga qor uchqunlab turganda.
G'amlar toshi yuragindan ko'cha boshlar birma-bir,
Sen o'zgasan, hasrat o'zga, qor uchqunlab turganda. "[1,18]*

Ijodkorning "Qor uchqunlab turganda" nomli she'rining ushbu misralarida ko'zga-o'zga so'zlari qofiyadosh, qor uchqunlab turganda jumlasida esa radif hisoblanadi. Shoir she'rida qalb ko'zlarini quvontiradigan oppoq qor parchalariga qarab hayollarga o'rindi va dunyoda bir zunga sukunat cho'kdi, shunday mahalda "Yigitlar qalb ochsa bizga qor uchqunlab turganda..." jumalari bilan qalbnomani yakunlanyapti.

"Ushbu dam qarori" nomli she'rning ikkinchi bandiga e'tiborimizni qaratsak:

*" Ketdik, hey, qayiqqa o'tirib ikkov,
Suzamiz oqimga qarama-qarshi,
Yiroqda sohillar sochmoqda olov,
Yiroqda sohillar kelar yorishib.
O'jar shamollar-la bo'lsalar gung,
boshlaymiz guring. "[1,30]*

Ushbu she'rdagi yiroqda sohillar jumlasida radif bo'lib kelgapti. Mazmun jihatdan yondashadigan bo'lsak, Eshkakchim, eshkakni qo'llaringga ol jumlasida olam-olam ma'no mujassam.

Kishi har o'qiganda, maqsadlari va o'zligini qayta anglab, hayotga shiddat ko'zlari bilan boqa boshlaydi.

Shoiraning "Bir qirg'oqqa" nomli she'ridagi misralarda:

*"Tushunmayman yashamoq-ku bir marta, nega,
Goh e'tiqod ko'kragingda ketar solib did.
Hamon muqim bir g'oyaga bo'lolmas ega,
Hamon muqim bir tomonga o'tmas odamzot?"[1,53]*

she'rda nega-ega, dod-odamzod so'zlari qofiyadosh, hamon muqim bir jumlasida radif bo'lib kelyapti.

Shoiraning "Ishonch darvozasi" nomli she'ridagi:

*" Ishonch qo'rg'onini qurib ketganlar,
Bu qo'rg'onda yayrab, yurib ketganlar.
Kimga zax ko'rinib qo'rg'on ichi goh,
Chiqib o'ng yo chapga urib. "[1,108]*

Ushbu misralarda qurib, yurib, urib so'zlari qofiya, ketganlar so'zi esa radif bo'lib kelyapti. She'r 1985-yil 16-mayda yozilgan bo'lib, undagi jozibadorlik insonni o'ziga tortadi.

" Bir vaqtlar ketar edik bahorlar tomon,

Na bahor, gurkirab viqorlar tomon.

Endi temir bo'lg'in, endi mung'ayma,

Endi yo'llarimiz qor, qorlar tomon. [1]

deb boshlanuvchu ushbu she'rda bahorlar, viqorlar va qorlar so'zlari qofiya, tomon so'zi esa radif vazifasini bajarayapti.

"Yolg'iz qari onasi ko'z yosh qildi kuyunib" deb boshlanuvchi she'rdagi ushbu misralarga e'tiborimizni qaratsak:

"Rais bosqinchi bo'lsa, mening aybim nimadir,

Nahot sevgi oqibat toshga tegar kemadir.

Begim uchun tumanli ishonch bo'ldim oqibat,

Tuhmat balolariga nishon bo'ldim oqibat.

Oллоhim der edi-ku, mana, olloh xor, ona,

Qo'sh olchaday yashaymiz degani bekor, ona" [1,124]

misralaridagi ishonch va nishon so'zlari qofiya, bo'ldim oqibat jumlasini esa radif bo'lib kelyapti.

Umuman olganda shoiraning ijodida ko'ngildan joy olmaydigan, o'qiganda qalbga o'rnashib qolmaydigan she'rning o'zi yo'q. Ijodkor she'rlarini o'qir ekanmiz, hayotni yanada yaxshiroq anglay boshlaymiz. She'riyatga, adabiyotga bo'lgan mehrimiz yanada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Halima Xudoyberdiyeva "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2006